

Date: 17th November-2024

**PROFILAKTIKA INSPEKTORINING MAHALLA RAISI BILAN
HAMKORLIKNI TASHKIL ETISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

Abdig'aniyev Nodirbek Baxodir uli

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 320-guruh kursanti

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqola mavzusining dolzarbligi shundaki, profilaktika inspektorining huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishda mahalla raisi bilan hamkorligining mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari, asosiy yo'nalishlari, usul va shakllari, hamkorlikni tashkil etishdagi muammo va kamchiliklar hamda ularning yechimlari yuzasidan fikr va mulohazalar yoritilgan. Shuningdek, qonunlar, Prezident qarorlari farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va davlat boshqaruv organlarining mamuriy huquqbuzarliklarni oldini olish hamda ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchiliklarni takomillashtirishga doir islohtlari mavzuning dolzarblik darajasini oshiradi.

Annotatsiya: Актуальность темы данной научной статьи заключается в том, что сущность и особенности сотрудничества инспектора по профилактике с председателем квартала при осуществлении профилактики правонарушений, основные направления, методы и формы, проблемы и недостатки в организации сотрудничества и пути их решения. Также реформирование законов, указов Президента, постановлений Кабинета Министров и органов государственного управления о профилактике административных правонарушений и совершенствование законодательства об административной ответственности повышают уровень актуальности темы.

Kalit so'zlar: Konstitutsiya profilaktika inspektori, mahalla huquqbuzarlik huquqbuzarliklar profilaktikasi mahalla raisi mahalla fuqarolar yig'ini.

Mamlakatimizda mahallalar darajasida aholi muammolarini o,z vaqtida aniqlash va samarali yechimini topish, ijtimoiy himoya tizimining manzilliligi va shaffofligini ta'minlash orqali fuqarolar yashash sharoitlarini yanada yaxshilash bo'yicha tizimli ishlar bajarilmoqda. Mahallalarni jinoyatchilikdan xoli hududga aylantirish, notinch oilalar sonini kamaytirish, mahalla xavfsizligini ta'minlash masalalasida olib borilayotgan ishlarni munosib taqdirlash maqsadida bir necha yildan beri o,tkazib kelinayotgan tanlov ichki ishlar xodimlari bilan bir qatorda ular bilan hamkorlikda ishlaydigan turli soha vakillarining mehnati ham hisobga olinadi.

So'nggi yillarda mahallani jamoatchilik boshqaruvi va nazoratining tayanch bo'g'iniga aylantirish, uning jamiyatdagi o'rni va rolini kuchaytirish, mahallalardagi muammolarni o'z vaqtida va samarali hal etishda davlat organlari va tashkilotlarining mahallalardagi vakillarining imkoniyatlarini yanada kengaytirish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, mahalladagi hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, ijtimoiy xodim va soliq inspektori faoliyatini baholashda mahalla raislarining maqomini oshirish zarurligi taqozo etilmoqda.



Date: 17th November-2024

Xalqimizning muqaddas va azaliy, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan, ulug' ajdodlarimiz hayoti va faoliyatining asosiy mezoni hamda insoniylik bilan yo'g'rilgan o'zbek xalqi ma'naviyatining ajralmas qismi bo'lgan vatanparvarlik, xalqparvarlik, adolat, haqiqat, insonparvarlik, kechirimlilik, rahmdillik, mehr-shafqat, bag'rikenglik, insofu-diyonat kabi xislatlari milliy urf-odatlarimiz zamirida mujassam bo'lgan. Insonni ulug'lash, oila, ota-ona va farzand muqaddasligi, tinch va osoyishta hayot, do'stlik va totuvlikni qadrlash, turli muammolarni birgalashib hal qilish kabi qadriyatlarga asoslangan. Bu azal-azaldan shunday bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi. Shuning uchun ham, olis kelajakda emas, balki bugungi kunda, xalqimiz ayni vaqtda yaxshi yashashi munosib hayot kechirishi va barcha imkoniyatlardan bahramand bo'lishini ta'minlashga qaratilgan xalqparvar tizimni yo'lga qo'yish bo'yicha keng ko'l amlil isloxtlar amalga oshirilmoqda. Taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo'yilayotgan hozirgi sharoitda "biz o'z faoliyatimizni buyuk kelajagimizni bugundan boshlanadidegan shior asosida tashkil etishimiz, xalqimizning farovon xayotini ta'minlash uchun bor kuch va salohiyatimizni ishga solishimiz zarur"ligi qayta qayta ta'kidlanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev aholi bandligini ta'minlash, ularning turmush tarzini yaxshilash borasidagi ko'rsatmalari asosida bugungi kunda sektorlar miqyosida "Temir daftar", "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari" yuritilib, ijtimoiy hisoyaga muhtoj oilalar va fuqarolarning muammolarini naiqlash va bartaraf etish borasida keng ko'lamli chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan mutlaqo yangi tizim joriy etildi. Mazkur tizimga asoslanib hozirda respublikamizda "Mahallabay", "Oilabay" va "Fuqarobay" ishlash yo'lga qo'yildiki bu jarayonlar ichki ishlar organlari, bevosita profilaktika inspektorining mahalla, shu bilan birga fuqarolar bilan hamkorligini takomillashtirishga xizmat qiladi. Huquqbuzarliklar profilaktikasi deganda huquq-tartibotni saqlash hamda mustahkamlash, huquqbuzarliklarni aniqlash, ularga barham berish, shuningdek ularning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon beraetgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish maqsadida qo'llaniladigan huquqbuzarliklar umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktikasining huquqiy, ijtimoiy, tashkiliy va boshqa chora-tadbirlari tizimi. Shu bilan birga, qonunning amal qilish doirasini aniq belgilab qo'yish muhim ahamiyatga ega. Misol uchun, ushbu qonun soliq, valyuta, bank, sug'urta, transport, harakat xavfsizligi, ekologiya, sanitariya-gigiyena, bojxona, huquq-tartibot idoralari faoliyati bo'yicha jamoatchilik nazoratini amalga oshirish munosabatlarini qamrab olishi zarur. Ayni paytda qonun bilan jamoatchilik nazoratini yurituvchi asosiy tuzilmalarni belgilab qo'yish talab etiladi. Chunki, profilaktika inspektorlari aynan ushbu sohadagi ishlarni nazorat qilishda va ma'lumotlar olishda fuqarolarning yordamiga suyanadi. Profilaktika inspektorining hisobotini eshitish bo'yicha o'tkaziladigan yig'in fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) tomonidan olib boriladi. Yig'in bayonnomasi fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli), fuqarolar yig'ini mas'ul kotibi, ichki ishlar organining ushbu hududga mas'ul etib birlashtirilgan rahbari tomonidan imzolanadi. Huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi va unda



Date: 17th November-2024

ishtirok etuvchi organ va muassasalar vakillari profilaktika inspektorlarining hisobotini eshitish bo'yicha o'tkaziladigan yig'inga fuqarolar yig'ini tomonidan taklif etiladi.

Profilaktika inspektori mahalla raisi bilan birgalikda hamkorlikni tashkil etishda quydagi vazifalarni amalga oshiradilar:

Milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an'analarni targ'ib qilish; davlat organlari vakillarini aholi muammolarini hal etishga safarbar etish; mahalla infratuzilmasini yaxshilash; "Obod mahalla", "Obod ko'cha" va "Obod xonadon" mezonlarini joriy etish; "Yashil makon" umummilliy loyihasi amalga oshirilishiga ko'maklashish; ommaviy hasharlarni tashkil qilish va ularga aholini jalb qilish; qonunchilik hujjatlari ijrosi ustidan jamoatchilik nazoratini ta'minlash; nuroniylar bilan birgalikda ta'lim muassasalarida tarbiyaviy soatlar va suhbatlar o'tkazish; "Mahalla yettiligi" a'zolari faoliyatini muvofiqlashtirib borish; mahalla hududida jamoat tartibini saqlash; huquqbuzarlik sodir etishga moyil shaxslar bilan manzilli ishlash; mahalladagi kriminogen vaziyatni tahlil qilish, huquqbuzarliklarni sodir etish sabablarini aniqlash va bartaraf etish choralarini ko'rish; qarovsiz va nazoratsiz qolgan voyaga yetmaganlarning ijtimoiy-huquqiy himoyasini ta'minlash; mahalla hududida jamoat tartibini saqlash; huquqbuzarlik sodir etishga moyil shaxslar bilan manzilli ishlash; mahalladagi kriminogen vaziyatni tahlil qilish, huquqbuzarliklarni sodir etish sabablarini aniqlash va bartaraf etish choralarini ko'rish; qarovsiz va nazoratsiz qolgan voyaga yetmaganlarning ijtimoiy-huquqiy himoyasini ta'minlash; aholini terrorchilik, ekstremistik va boshqa g'ayriqonuniy buzg'unchilik hamda axloqsizlik yo'nalishidagi oqimlar ta'siridan himoya qilish.

Xulosa o'rnida shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, mahalla huquq-tartibot maskani faoliyati tahlili va u asosida ishlab chiqilgan rejalarning ijrosini ta'minlanishi huquqbuzarliklar profilaktikasi inspektori bilan mahalla raisi o'rtasidagi hamkorlikning samaradorligini oshirishga, ularning sodir etilishi sabablari va imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash hamda o'z vaqtida bartaraf etishga xizmat qiladi..

